Atrof-muhitni muhofaza qilish ta’limi va barqaror rivojlantirish

Ibrohimov Husanboy
Talaba Farg’ona politexnika instituti Farg’ona shahri

«Inson va Tabiat» kitoblar to'plamining maqsadi maktab o'qituvchisiga atrof-muhit ta'limiga taalluqli g'oyalar, o'tkazish mumkin bo'lgan choratadbirlar va topshiriqlar haqida m a’lumot berish va atrof-muhit ta'limini maktablarda rivojlantirish. Atrof-muhit ta'limi bolalar ta'lim-tarbiyasining muhim qismi bo'lishi lozim va «Inson va Tabiat» kitoblar to'plamini Suv, Havo, Rang-barang tabiat va Tuproq kitoblari Sizga maktabingizda atrofmuhit ta'limini baland saviyaga ko'tarishda kerak bo'lgan bare ha ma'lumotlar bilan ta’minlaydi. Kirish qismining maqsadi atrof-muhit ta’limini la'riflash va bu uchta asosiy savol va muammolar orqali taqdim etilgan. Atrof-muhit ta'limida birinchi muhim muammo dunyoda atrof-muhit krizisi mavjudligi va bu krizisning global muammolar orasiga kirishini anglash. Dunvo global atrof-muhit krizisiga uchrab turgani aniq va bunga dalillar ko'p. Oxirgi o'n yil ichida vazivat keskin qiyinlashib ketishi kuzatilgan edi. To'g'ri, dunyoning bir xil davlatlari ekologik vaziyatni yaxshilash uchun ko'p chora-tadbirlar o'tkazgan va yaxshi natijalarga erishdilar, lekin umuman olganda dunvo miqyosida ekologik vazivat yomonlashgan. Masalan, atmosferaga tashlanadigan karbon dioksid kabi zaharli gazlar «parnik efTekti»ning kelib chiqishiga olib keladi. Ushbu «parnik effekti» boshqa barcha dunvo haroratining o'zgarishidan kelib chiqqan halokatlarning sababchisi bo'lib qolmoqda, masalan, yaqinda Yevropa va Janubiy Osiyo davlatlarida bo'lib o'tgan suv toshqinlari. Suv sifati pasayishi natijasida kundan-kunga toza ichimlik suvi yetishmasligi soni o'smoqda. Dunyoda har kuni 50000 bola vafot etadi va bulling asosiy sabablaridan biri toza ichimlik suvining yo'qligi! Shu kabi faktlarni yana ko'p keltirish mumkin. Shu kabi muammolar dunyoning barcha joylarida mavjud, masalan, Markaziy Osivoda hammaga ma’lum bo'lgan Orol dengizi suvlarining kamayishi va bundan kelib chiqqan barcha ekologik muammolar. (Bu verda O'zbekistonda bo'lgan ekologik muammolardan bir-ikkita misol keltiring.) Biz birsayyorada yashaymiz, bu bizlar uchun bir katta mahalladek, shuning uchun O'zbekistonni dunvo, Markaziy Osivodan chegaralab qo'yish mumkin emas. Shuning uchun atrof-muhit ta'limi o'quvchilarga ekologik krizislar, ular muammolari haqida bilim va tushuncha berishi lozim. Atrof-muhit ta’limi o'quvchilarga ekologik muammoga birtom onlam a qarash mumkin emasligini, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan qalin bog'liqligini va ekologik krizis sabablar. natijalar va munosabatlardan kelib chiqishini anglashiga ko'maklashishi lozim. Masalan, o'rmonlar kesilishi muammosi misolini olaylik.

Ushbu muammo dunyoning ko'p davlatlarida mavjud. O'rmon kesilishi ekologik jihatdan katta ahamiyatga ega va bundan yerning hosildorligi pasayadi, tuproq eroziyasi paydo bo'ladi va suv toshqinlari ehtimoli ko'payadi. Ammo bunda ijtimoiy muammo ham mavjud. Odamlarni daraxt kesishga yashash uchun mablag'* topish majburligi va o'z havotini yaxshilash zarurligi undaydi. Ijtimoiy va madaniy muammolar kelib chiqishi ehtimoli ham mavjud, masalan, suv toshqini xonadonlarni, qishloqlarni vuvib ketishi va qishloq xo'jaligini vayron qilishi mumkin. Siyosiy tomoni, o'rmonlarni kesilishidan hukumatga soliq daromad keltiradi. O 'rm on kesilishi rna’lum bir davlatda bo'lsa ham bu muammo global xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Agar o'rmonlarni kesayotgan tashkilot Xalqaro korporatsiya bo'lib, uning asosiy joylashgan davlati, masalan AQSH bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda o'rm on kesilishi biologik xilma-xillikni pasaytiradi va global iqlimga ta’sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://taqvim.uz/uz/library/view/47
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tabiat
3. https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/04/Inson-va-tabiat.pdf